

## O'zbekiston va Pokiston Prezidentlari ko'p qirrali sheriklikni kengaytirish masalalarini muhokama qildilar



Ashxobod shahrida o'tayotgan IHT sammiti tadbirlari doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Pokiston Islom Respublikasi Prezidenti Orif Alviy bilan uchrashuv o'tkazdi.

O'zbekiston-Pokiston ko'p qirrali hamkorligini yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Sheriklik aloqalari, eng avvalo iqtisodiyot yo'nalishida jadal rivojlanib borayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Mintaqa kun tartibidagi dolzarb masalalar, shu jumladan Afg'onistonda vujudga kelayotgan vaziyat muhokama qilindi.

**Manba**